

# Toshkent shahar statistika boshqarmasi



## Korxonalar va tashkilotlar



(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– avgust holatiga

### RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **5.1 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,5 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **5,7 mingtaga oshgan.**


2018 yilning yanvar-avgust oyida Toshkent shahrida 8,3 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 mingtaga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 % ga kamaygan hamda ularning soni 2,6 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 5,1 mingta (7,7%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 66,4 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Yunusobod tumanida (13,6%), Chilonzorda (12,7%), Mirzo Ulug'bekda (11,7%) va Olmazor (10,2%) tumanlarida kuzatilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), ming birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
<b>Toshkent shahar</b>	<b>68,0</b>	<b>100,0</b>	<b>66,4</b>	<b>100,0</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>Uchtepa</b>	<b>5,7</b>	<b>8,4</b>	<b>5,6</b>	<b>8,4</b>
<b>Bektemir</b>	<b>1,4</b>	<b>2,1</b>	<b>1,4</b>	<b>2,1</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>9,3</b>	<b>13,7</b>	<b>9,0</b>	<b>13,6</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>7,9</b>	<b>11,6</b>	<b>7,8</b>	<b>11,7</b>
<b>Mirobod</b>	<b>5,9</b>	<b>8,7</b>	<b>5,8</b>	<b>8,7</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>6,9</b>	<b>10,1</b>	<b>6,7</b>	<b>10,1</b>
<b>Olmazor</b>	<b>6,9</b>	<b>10,1</b>	<b>6,8</b>	<b>10,2</b>
<b>Sergeli</b>	<b>3,9</b>	<b>5,7</b>	<b>3,9</b>	<b>5,9</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>6,2</b>	<b>9,1</b>	<b>6,1</b>	<b>9,2</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>5,1</b>	<b>7,5</b>	<b>4,9</b>	<b>7,4</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>8,8</b>	<b>12,9</b>	<b>8,4</b>	<b>12,7</b>

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,5% sanoatda, 19,9 % savdoda, 7,6% qurilishda, 7,3% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,3 % tashish va saqlash, 3,8 % axborotva aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va 34,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




### Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi





2018 yil yanva-avgust holatiga 8388 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Yunusobod tumanida (1198 ta), Chilonzor (1031 ta), Mirzo Uluq'bek (965 ta) va Shayhontohur tumanlarida (857 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (176 ta), Sirq'ali (517 ta) hamda Yashnobod (636 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (2169 ta), sanoatda (1536 ta) va qurilishda (966 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (116 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (139 ta), tashish va saqlashda (341 ta) va axborot va aloqada (419 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-avgust holatiga.	2018 yil yanvar-avgust holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>7277</b>	<b>8388</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	<b>176</b>	<b>139</b>
<b>Sanoat</b>	<b>1940</b>	<b>1536</b>
<b>Qurilish</b>	<b>735</b>	<b>966</b>
<b>Savdo</b>	<b>1269</b>	<b>2169</b>
<b>Tashish va saqlash</b>	<b>258</b>	<b>341</b>
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	<b>683</b>	<b>681</b>
<b>Axborot va aloqa</b>	<b>315</b>	<b>419</b>
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	<b>104</b>	<b>116</b>
<b>Boshqa turlari</b>	<b>1770</b>	<b>2021</b>

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 Sentabr holatiga 57,8 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9,2 mingta, oilaviy korxonalar – 2,1 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 45,1 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,2 mingtani va boshqalar 1,2 mingtani tashkil etadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 Sentabr holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 4275 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 777 taga yoki 18.1 % ga o'sgan. Shuningdek xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 2055 tasi qo'shma korxonalar, 2220 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Mirobod tumani 668 ta (16,5 %), Yakkasaroy 652 ta (16,1 %) va Yunusobod tumanlari 509 ta (12,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Olmazor tumanida 219 ta (5,4 %), Sergeli 160 ta (4,0 %), Uchtepa 116 ta (2,9%) va Bektemir tumanlarida 97 ta (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 Sentabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 1230 ta (28,8 %), savdoda 1096 ta (25,6 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 998 ta (23,4 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 40 ta (0,9 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 61 ta (1,4 %), tashish va saqlashda 146 ta (3,4 %), axborot va aloqada 166 ta (3,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 218 ta (5,1 %) va qurilishda 320 ta (7,5 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da





2018 yilning yanvar-sentabr oyida Toshkent shahrida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 861 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 563 taga ko'paygan yoki 2,8 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 171 ta, Turkiya Respublikasi – 156 ta, Qozog'iston Respublikasi – 113 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-96 ta va Koreya Respublikasi –57 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, (yanvar-iyun holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 281 ta, sanoatda 285 ta, qurilishda 100 ta, axborot va aloqada 47 ta, va boshqa faoliyat turlarida 248 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentabr holatiga Toshkent shaharda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 57,1 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentabr holatiga qaraganda 10,4% ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 7763 tasi (13,5%) Yunusobod tumaniga, 7228 tasi (12,6%) Chilonzor tumaniga, 6610 tasi (11,5%) Mirzo Ulug'bek tumaniga va 6099 tasi (10,6 foizi) Olmazor tumaniga.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 57,1 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 12,8 mingtasi (22,4%) - sanoatda, 13,1 mingtasi (22,8%) - savdoda, 4,9 mingtasi (8,7%) - qurilishda, 4,8 mingtasi (8,4%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,8 mingtasi (4,9%) - tashish va saqlashda, 2,5 mingtasi (4,3%) - axborot va aloqa sohasida, 1,1 mingtasi (1,9%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,6 mingtasi (1,1%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, shuningdek 14,5 mingtasi (25,5%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-avgust holatiga 7,9 mintaga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 12,8 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Yunusobod tumaniga (1118 ta), Chilonzor (970 ta), Mirzo Uluq'bek (904 ta) va Shayhontohur tumanlarida (813 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (169 ta), Sirq'ali (492 ta) hamda Yashnobod (615 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2169 ta), sanoatda (1534 ta), qurilishda (965 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (112 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (136 ta) hamda tashish va saqlashda (341 ta) tashkil etilgan.




## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentabr holatiga 2186 tani tashkil etib, ulardan 2141 tasi yoki 97,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **16,6%** ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 44,1 % yoki 945 tasi sanoat, 16,7 % yoki 358 tasi savdo, 16,1 % yoki 344 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,5 % yoki 54 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,7 % yoki 36 tasi qurilish, 1,6 % yoki 35 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 18 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 20 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 15,5 % yoki 331 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
 Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
 Nashr uchun mas'ul: A. Rashidov

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan